



RUS TILINI O'RGANISHDA MOBIL ILOVALAR VA RAQAMLI RESURSLARNING ROLI

Doniyorova Mahliyo Sherali qizi

Shahrisabz davlat pedagogika instituti

Ona tili va adabiyoti rus tili yo'nalishi

1-bosqich talabasi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada rus tilini o'rganishda mobil ilovalar va raqamli resurslarning o'rni tahlil qilinadi. Zamonaviy texnologiyalar til o'rganish jarayonini yanada qulay, interaktiv va samarali qilish imkonini berayotgani ko'rsatib o'tiladi. Xususan, mobil ilovalar orqali lug'at boyligini oshirish, tinglab tushunish, yozish va gapirish ko'nikmalarini rivojlantirish imkoniyatlari yoritiladi. Shuningdek, raqamli platformalarning mustaqil ta'lim olishdagi ahamiyati va ularning an'anaviy o'qitish usullaridan farqli jihatlari tahlil qilinadi. Maqolada ushbu vositalarning afzalliklari bilan bir qatorda, ularni samarali qo'llash bo'yicha amaliy tavsiyalar ham berilgan.*

Kalit so'zlar; *rus tili, mobil ilovalar, raqamli resurslar, til o'rganish, onlayn ta'lim interektiv o'qitish, mustaqil ta'lim, lug'at boyligi, tinglab tushunish, gapirish ko'nikmasi, zamonaviy texnologiyalari, ta'lim samaradorligi.*

Аннотация. *В данной статье рассматривается роль мобильных приложений и цифровых ресурсов в изучении русского языка. Показано, что современные технологии делают процесс обучения более удобным, интерактивным и эффективным. Особое внимание уделяется возможностям мобильных приложений в развитии словарного запаса, навыков аудирования, письма и устной речи. Также анализируется значение цифровых платформ в самостоятельном обучении и их отличия от традиционных методов преподавания. В статье представлены не только преимущества данных*



средств, но и практические рекомендации по их эффективному использованию.

Ключевые слова. *Русский язык, мобильные приложения, цифровые ресурсы, изучение языка, онлайн-обучение, интерактивное обучение, самостоятельное обучение, словарный запас, аудирование, устная речь, письменная речь, современные технологии, эффективность обучения.*

Axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi va globallashtirish sharoitida ta'lim tizimi sezilarli darajada o'zgarib bormoqda. Raqamlashtirish jarayoni ta'limning barcha sohalariga, jumladan, xorijiy tillarni o'rganishga ham o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. So'ngi yillarda rus tilini o'qitishda mobil ilovalar va raqamli resurslardan keng foydalanilmoqda. Ushbu mavzuning dolzarbligi shundaki, zamonaviy o'quvchilar bilim olish jarayonida smartfon, planshet va internet resurslaridan faol foydalanmoqda, bu esa o'qitish samaradorligini oshirish uchun yangi imkoniyatlar yaratadi.

Mobil ilovalar rus tilini o'rganishda eng qulay va ommabop vositalardan biri hisoblanadi. Ularning asosiy afzalligi – istalgan vaqt va istalgan joyda o'rganish imkoniyatidir. Bunday ilovalar o'qish, yozish, tinglab tushunish va gapirish ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan turli topshiriqlarni taqdim etadi. Interaktiv usullar va o'yin elementlari (gamifikatsiya) orqali o'quv jarayoni yanada qiziqarli va motivatsion bo'ladi. Foydalanuvchi o'z bilim darajasiga mos ravishda mashqlarni bajarishi, natijalarni kuzatishi va materialni kuzatishi va materialni takrorlashi mumkin.

Raqamli ta'lim resurslari ham til o'rganishda muhim o'rin tutadi. Ularga onlayn platformalar, ta'limiy saytlar, video materiallar, elektron darsliklar va interaktiv kurslar kiradi. Ushbu resurslar orqali foydalanuvchilar katta hajmdagi autentik materiallarga – maqolalar, vidiolar va podkastlarga kirish imkoniga ega bo'ladi. Bu esa tilni nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham o'rganishga yordam beradi.



Multimedia vositalaridan foydalanish o'quv jarayonini yanada tushunarli va samarali qiladi, shuningdek, o'quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olish imkonini beradi.

Raqamli texnologiyalar til ko'nikmalarining kompleks rivojlanishiga xizmat qiladi. Ular yordamida lug'at boyligini oshirish, grammatik qoidalarni mustahkamlash, tinglab tushunish va og'zaki nutqni rivojlantirish mumkin. Ayniqsa, mustaqil ta'lim olish imkoniyati muhim ahamiyatga ega bo'lib, o'quvchi o'ziga qulay tezlikda va darajada o'rganadi. Bu esa mas'uliyat, o'zini nazorat qilish va mustaqil fikrlash ko'nikmalarini shakllantiradi.

Shu bilan birga, mobil ilovalar va raqamli resurslardan foydalanishning ayrim kamchiliklari ham mavjud. Jumladan, jonli muloqotning yetishmasligi, texnik vositalar va internetga bog'liqlik, diqqatning chalg'ishi kabi muommolar yuzaga kelishi mumkin. Bundan tashqari, o'qituvchi nazoratisiz o'qish samaradorligi pasayishi ehtimoli bor. Shu sababli, raqamli vositalardan foydalanishda an'anaviy ta'lim usullari bilan uyg'unlikni ta'minlash muhimdir.

Mobil ilovalar va raqamli resurslar rus tilini o'rganishda muhim bo'lib, o'quv jarayonini yanada qulay, moslashuvchan va samarali qiladi. Biroq yuqori natijalarga erishish uchun ularni ta'lim usullari bilan birgalikda qo'llash zarur.

Shuningdek, o'quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olish imkonini beradi. Raqamli texnologiyalar til ko'nikmalarining kompleks rivojlanishiga xizmat qiladi. Ular yordamida lug'at boyligini oshirish, grammatik qoidalarni mustahkamlash mumkin. Ayniqsa, mustaqil ta'lim olish imkoniyati muhim ahamiyatga ega va o'quvchi o'ziga qulay tezlikda va darajada o'rganadi. Bu esa mas'uliyat, o'zini nazorat qilish va mustaqil fikrlash ko'nikmalarini shakllantiradi.

Rus tilini o'qitishda zamonaviy yondashuvlardan biri – multimedia vositalari yordamida lingvistik muhitni yaratishdir. O'quvchi virtual olam orqali rus tilida



so'zlashuvchi muhitga tushib qolishi, interaktiv muloqotga kirishi va o'z talaffuzini sin'iy intellekt yordamida tekshirib borishi mumkin. Bu usul o'quvchidagi til to'sig'i (language barrier) yengishga va nutqiy kompetensiyalarni erkin shakllantirishga yordam beradi.

Vaqtning samarali boshqarishida raqamli resurslar o'qituvchilarga va o'quvchilarga o'quv jarayonini optimallashtirish imkonini beradi. Onlayn resurslar orqali o'quvchilar va o'qituvchilar ta'lim dasturlarini va vaqt jadvalini moslashtirish imkoniyatiga ega bo'adilar. Raqamli resurslar ularga o'quv materiallarini tezda olish, kerakli bilimlarni to'ldirish va qayta ko'rib chiqish imkoniyatlarini beradi.

Global o'qituvchilar bilan aloqada bo'lishda internet va raqamli platformalar o'quvchilarni boshqa mamlakatlardagi o'qituvchi va o'quvchilar bilan muloqot qilishlari mumkin. Bu usul orqali ham rus tilini o'rganish uchun muloqotga kirishish fikrlar almashinuvini rivojlantirish va tilni real hayotda ishlatish imkoniyatlari paydo bo'ladi.

Bundan tashqari, raqamli platformalar o'qituvchi uchun ham katta imkoniyatlar yaratadi. Ular orqali o'quvchilarning o'zlashtirish darajasini masofadan turib tahlil qilish, har bir o'quvchi uchun individual ta'lim trayektoriyasini tuzish va o'quv materiallarini muntazam yangilab borish imkoniyati tug'iladi. Ayniqsa, o'yinlashtirilgan (gamification) topshiriqlar o'quvchi yoshidagi qiziquvchanlikni rag'batlantirib, murakkab grammatik mavzularni oson va qiziqarli tarzda o'zlashtirishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, mobil ilovalar va raqamli resurslar rus tilini o'rganishda muhim ahamiyatga ega bo'lib, o'quv jarayonini yanada qulay, moslashuvchan va samarali qiladi. Biroq yuqori natijalarga erishish uchun ularni an'anaviy ta'lim usullari bilan birgalikda qo'llash zarur. Faqatgina texnologik imkoniyatlar va o'qituvchining jonli pedagogik maxorati o'rtasidagi oltin muvozanat bugungi kun talablariga javob beradigan sifatli ta'limni kafolatlaydi.



Foydalanilgan adabiyotlar

1. Азимов.Э.Г., Шукин.А.Н. *Новый словарь методических терминов и понятий.* - Москва . ИКАР, 2009.
2. Полат.Е.С. *Новые педагогические и информационные технологии в системе образования.* – Москва. Академия, 2010.
3. Зимняя.И.А. *Педагогическая психология.* – Москва. Логос, 2004
4. Леоньев.А.А. *Язык и речевая деятельность.* – Москва. Наука, 2003
5. Капранчикова К.В. *Мобильные технологии в обучении иностранному языку.*
6. Титова С. В. *Мобильное обучение иностранным языкам.* — М.: Икар, 2014
7. Panchenko N. N. *Sifrovie resursi v prepodavanii RKI.* — SPb, 2021
8. Kukulska-Hulme A. *Mobile Language Learning: Literature review and strategic-level considerations.* — 2016.
- 9.